

KO'NGLIMNI ZABT ETGAN SHE'RIYAT

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

talaba, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada she'riyat tushunchasi, uning vaznlari, o'zbek she'riyatining go'zal namunalari aks ettirilgan. She'rning turfa vaznlari, ular haqida ma'lumot va turli hajmdagi misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *She'r, vazn, barmoq vazni, aruz vazni, erkin vazn, she'riyat, g'azal, ruboiy, qit'a, fard, tajnis, tashbeh, istiora, tuyuq, tazod.*

Dunyoda hech bir o'lka, hech bir go'sha yo'qki, san'at kirib bormagan bo'lsa. San'atning rango-rang tarmoqlari kurtak otmagan bo'lsa. Aksariyat insonlar sivilizatsiyadan ortda qolgan deb hisoblagan Afrika mamlakatlarida ham san'at kirib borgandir. Bundan ko'rinib turibdiki, san'at – hech yengib bo'lmas kuch, o'chmas olovdur.

San'atning xilma-xil bir-biridan go'zal turlari: nasr, nazm, musiqa tasvir... Bularning bari bu ko'hna dunyoning jozibasiga o'z hissasini qo'shgan. Nasr bizga ma'lum voqelikni go'zal jumlar bilan bayon qilsa, nazm shu voqeani bir-biridan jozibali satrlar, baytlar bilan kitobxonga yetkazadi.

She'riyat... Naqadar go'zal, sermazmun va ko'pqirrali tushuncha... Insonni o'zining rang-barang tuyg'ular jilosi ila kuldirgan ham, yig'latgan ham, o'yg'a toldirgan ham, hayratlantirgan ham o'sha. Taniqli o'zbek shoiri Usmon Nosir o'zining “Yana she'rimga” nomli she'rida yozganidek:

Sen o'rtada ko'prik bo'lding-u,

Geyne bilan o'rtoq tutindim.

Lermontovdan ko'mak o'tindim...

Ushbu sehrli misralarga diqqatimizni qaratsak, she'riyatning chinakam afsungar ekanligiga, turli olamlarni tutashtirib turuvchi ko'prikligiga ishonch hosil qila olishimiz shubhasiz. Nazmni o'rganar ekanmiz, uning sirli-olaniga sekin-astalik bilan sho'ng'ib boraveramiz.

She'r o'zi nima? “She'r” deya bong uryapmiz-u, uning asl mohiyati, maqsadi, ma'nosidan xabarimiz bormi?

She'r – ohang jihatidan ma'lum bir qolipga solingan, ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari ifodasi sifatida vujudga kelgan ritmik nutq hisoblanadi. Nutqning bu tarzda qolipga solinishi she'riy vazn yoki she'riy tizim deb ataladi. O'zbek she'riyatida asosan uchta: barmoq, erkin va aruz vaznlari qo'llanilib kelgan.

Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlar sonining bir xil miqdorda takrorlanishi va guruhlanishiga asoslanadi. Bu tizimda bo'g'inlarning sifati, ochiq yoki yopiqqligi muhim emas.

O'zbek she'riyatining aksariyat namunalari barmoq vaznda yozilgan.

Men nechun sevaman O'zbekistonni(11 bo'g'in)

Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo(11 bo'g'in)

Nechun Vatan deya yer-u osmonni(11 bo'g'in)

Muqaddas atayman, atayman tanho.(11 bo'g'in)

“O‘zbekiston Qahramoni”, taniqli shoir Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu she‘r ham barmoq vaznida yozilgandir.

Quyida barmoq vaznda yozilgan yana bir ajoyib namuna:

Boqsam yerlik navolarga (8 bo‘g‘in)

Bilman, qachon qaytaman. (7 bo‘g‘in)

Men dardimni havolarga, (8 bo‘g‘in)

Shamollarga aytaman. (7 bo‘g‘in)

(Rauf Parfi)

Shu kabi tuzilishga ega bo‘lgan she‘rlar ham barmoq vazniga mansubdir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari ham, asosan, shu vaznda yaratiladi. Buni Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yozilgan “Devonu lug‘ot ut-turk” asarida misol tariqasida keltirilgan she‘riy parchalar ham to‘liq isbotlaydi. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘onoy va boshqa buyuk shoirlarimizning ayrim she‘rlari ham barmoq vaznida yaratilgan.

Turkiy she‘riyat olamiga XI asrda kirib kelgan aruz vazni ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Millatimiz ming yillik aruziy merosga egadir. Aruzda bitilgan she‘rning vaznini yaxshi bilmay turib to‘g‘ri o‘qishning hech ham iloji yo‘q. Ushbu betakror vaznga atab ko‘pgina buyuk olim-u yozuvchilarimiz takrorlanmas asarlar, ajoyib qo‘llanmalar yaratganlar. Misol uchun: Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘qituvchisi Dilnavoz Yusupova muallifligidagi “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” nomli ilmiy qo‘llanmasi hozirgi aruz tizimini o‘rganish ishtiyoqida bo‘lgan yoshlar uchun ajoyib qo‘llanmadir.

Zahiriddin Muhammad Boburning 1523-1525-yillar oralig‘ida yaratilgan “Muxtasar” asari ham aruz nazariyasi to‘g‘risida. Bobur ushbu asarda aruz vaznidagi barcha yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib, ba‘zi noaniq masalalarga aniqlik kiritgan va uni yangi fikrlar ila boyitgan. O‘zbek, arab, fors aruzlarini bir-biriga qiyoslab, aruz vaznining 248 turini aniqlagan.

Ushbu vazn to‘g‘risida Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida, Xalil ibn Ahmad “Kitob al-Aruz” asarida va boshqa ko‘plab allomalar o‘zlarining qimmatli risolalarida aruz vazni to‘g‘risida foydali ma‘lumotlar keltirganlar.. Shuningdek, ushbu vazn rivojiga Yusuf Xos Hojib, Tusiy, Rashididdin Vatvot singari yetuk ulamolar ham o‘zlarining hissalarini qo‘shishgan.

Barchamiz bilgan va o‘qigan g‘azal, ruboiy, tuyuq, fard-u qit‘alar aynan shu vaznda yoziladi. Tashbeh, istiora, tazod, talmeh, tajohil-ul orif, husni ta‘lil, tajnis, ta‘did singari o‘nlab atama va tushunchalar ham aruz vazniga tegishlidir.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatiga xos vaznlardan yana biri erkin she‘r tizimi deb ataladi. Erkin vaznda bir o‘lchovdan boshqasiga erkin o‘tib ketaveradi. Unda na bo‘g‘inlar, vana turoqlar sonining bir xilligiga rioya qilinadi. Erkin vaznda yozilgan she‘rlar “Oq she‘r” deb ham ataladi. Rauf Parfining “Yangi tong” she‘ri erkin vaznning namunasi hisoblanadi:

Tongda erib ketdi

Kecha

Uyqusini quvib ko‘chaning

Avtolar shovqin solib kechar.

Dunyo so‘ramadim, sendan,

Do‘stim, shu daqiqa.

Shunchaki tong nafasi yanglig‘

Tabassuming kerak

Faqat.

Ko‘rib turibmizki, ushbu she‘r qofiya, turoq kabi tushunchalardan yiroq, ammo juda go‘zal, jozibali. O‘quvchi o‘qigani sari o‘qigisi kelaveradi.

“Men she‘riyatni insonning o‘z-o‘zi bilan, odamlar bilan, tabiat bilan, Xudo bilan ruhiy suhbatini deb bilaman. Bu suhbatga ehtiyoj qachon tug‘iladi? Ishonchim komilki, odamzod dunyoga kelganda bu olamning pok tasviri qalbiga muhrlangan bo‘ladi – ota-ona, Vatan, do‘stdan tortib Yaratuvcigacha, mehr, muhabbat, adolat va hurlikdan tortib e‘tiqodgacha. U ro‘baro‘ kelgan hayot ana shu pok – ideal tasavvuriy go‘zal bo‘lsa, zavqlanadi, unga mos kelmasa iztirob chekadi. Kim bilandir ruhoniylar suhbat ehtiyojini tug‘iladi. Yuragida tug‘ilgan dardlarga malham, savollarga javob olgisi keladi, ruh taskin va hamdard izlaydi...”

(Shoir Aziz Said)

She‘riyatning turfa olami haqida qancha so‘zlasak ham, sir-asrorlarini qancha maqtasak ham ozdir. Uni o‘rganar ekanmiz, she‘riyat xuddi boshi va oxiri yo‘q dengizga o‘xshaydi. Undan hech chiqib keta olmaymiz. Uning xilma-xil vaznlari, rang-barang jihatlari o‘quvchini o‘ziga ohangraboddek chorlaveradi. Biz sehrlangandek unga ergashaveramiz. Natijada, ushbu ajib olamning bir qismiga aylanib qolganimizni sezmay qolamiz.

She‘r qanday vaznda, qaysi tilda yozilgan bo‘lmasin, uni qaysi millat ahli o‘qimasin, undagi go‘zal so‘zlar va ma‘nolar jilosi har kimni o‘ziga rom etadi. She‘riyat borki olam yashnaydi, she‘riyat borki, insoniyat yashaydi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot 8-sinf. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 152 bet.
2. Aruz vazni va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: “Ta‘lim media” nashriyoti, 2019. – 283 bet.
3. www.ziyouz.com